XALQ DEPUTATLARI NARPAY TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-18-132-7-98-K/25 Narpay tumani

Narpay tumanining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27-, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-sonli Qonuniga, xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi VII-24-191-7-0-K/25-sonli qaroriga muvofiq hamda Samarqand viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 29-dekabrdagi 01/01.2-38/3956-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Narpay tumani Kengashining yettinchi chaqiriq o‘n sakkizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi VII-24-191-7-0-K/25-sonli qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Narpay tumani byudjetining 2026-yilgi daromadlari **152 327,0 mln so‘m** va xarajatlari esa **152 327,0 mln so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda Narpay tumani byudjetining shaxsiy g‘azna hisob varag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **1 157,0 mln so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman byudjetidan 2026-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1 935,2 mln so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Quyidagilar:

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 3-ilovaga;

jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Aliyev), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (F.Sadriddinov) va tuman soliq inspeksiyasi (Z.Turdiyev)lar bilan birgalikda 2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

byudjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (U.Namazov) ga, qarorning ijrosini ta’minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Aliyev) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **XUSANOVA RISOLAT ISMOILOVNA**

Xalq deputatlari Narpay tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-132-7-98-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Narpay tumani mahalliy byudjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari miqdori

ming so‘mda

T/r	Daromad turlari	Jami
	JAMI	**152 327 023,0**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	3 116 400,0
2	Foyda solig‘i	1 862 100,0
3	Aylanmadan olinadigan soliq	8 413 000,0
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	63 108 120,0
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	755 000,0
6	Aksiz solig‘i jami	7 125 000,0
	shundan:	
	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	*7 125 000,0*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 399 000,0
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	10 910 000,0
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	14 606 000,0
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	31 742 803,0
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	128 000,0
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	8 691 000,0
	shundan:	

	Qishloq xo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	*8 413 000,0*
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	*-3 365 200,0*
13	Davlat boji	785 000,0
14	Yig‘imlar	242 700,0
15	Jarimalar	706 100,0
16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	102 000,0

Xalq deputatlari Narpay tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-132-7-98-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Narpay tumani mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlari miqdori, jami		**152 327 023,0**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	50 195 335,0
	shundan:	
	"Mening maktabim"	4 326 000,0
2	Madaniyat bo‘limi	14 345 574,0
3	Yoshlar ishlari agentligining tuman bo‘limi	5 178 008,0
4	Sport bo‘limi	8 165 283,0
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 765 891,0
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	5 776 514,0
7	Iqtisodiyot va moliya bo‘limini saqlash xarajatlari	2 852 567,0
8	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	224 073,0
9	Hokimiyat	45 431 181,0
	shundan:	
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	26 765 902
	Mahalla budjeti jamg‘armasi mablag‘lari	2 986 000

	Zaxira jamg‘armasi	1 935 249
10	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	920 869,0
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasini saqlash xarajatlari	112 848
	Axborot-kutubxona markazi	808 021
11	Obodonlashtirish boshqarmasi	17 471 728

Xalq deputatlari Narpay tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-132-7-98-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

(so‘mda)

T/r	Mahalla fuqarolar yig‘ini nomi	Koeffitsiyent (0,5 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun
1	Amir Temur MFY	1,58	69 567 400,0
2	Axillik MFY	1,36	59 880 800,0
3	Barkamol MFY	1,32	58 119 600,0
4	Beklar MFY	1,12	49 313 600,0
5	Birlik MFY	1,12	49 313 600,0
6	Bolg‘ali MFY	1,32	58 119 600,0
7	Buston MFY	0,99	43 589 700,0
8	Guliston MFY	1,32	58 119 600,0
9	Dedan MFY	1,12	49 313 600,0
10	Do‘stlik MFY	1,12	49 313 600,0
11	Iymon MFY	1,12	49 313 600,0
12	Ipak yo‘li MFY	1,12	49 313 600,0
13	Islom Shoir MFY	1,58	69 567 400,0
14	Islomobod MFY	1,58	69 567 400,0
15	Istiqlol MFY	1,12	49 313 600,0
16	Qoziyoqli MFY	1,12	49 313 600,0
17	Qozikent MFY	1,12	49 313 600,0
18	Ko‘k ota MFY	1,12	49 313 600,0
19	Mang‘it MFY	1,12	49 313 600,0
20	Muqumiy MFY	1,58	69 567 400,0
21	Mustaqillik MFY	1,12	49 313 600,0
22	Mushkent MFY	1,12	49 313 600,0
23	Navruz MFY	1,12	49 313 600,0
24	Narpay MFY	1,32	58 119 600,0

25	Nog‘araxona MFY	1,58	69 567 400,0
26	Nug‘ay MFY	1,12	49 313 600,0
27	Obihayot MFY	1,12	49 313 600,0
28	Oq oltin MFY	1,12	49 313 600,0
29	Oqtosh MFY	1,58	69 567 400,0
30	Olti o‘g‘il MFY	1,12	49 313 600,0
31	Ravot Olchin MFY	1,12	49 313 600,0
32	Salovat MFY	1,58	69 567 400,0
33	Sarbozor MFY	1,58	69 567 400,0
34	Soxibkor MFY	0,99	43 589 700,0
35	Tepa MFY	1,58	69 567 400,0
36	Tepaqo‘rgon MFY	1,12	49 313 600,0
37	Tinchlik MFY	1,58	69 567 400,0
38	Tortuvli MFY	1,12	49 313 600,0
39	Totkent MFY	1,12	49 313 600,0
40	Toshko‘prik MFY	1,12	49 313 600,0
41	To‘ron MFY	1,12	49 313 600,0
42	O‘zbekiston MFY	1,12	49 313 600,0
43	O‘zbekkenti MFY	1,12	49 313 600,0
44	Umid MFY	1,12	49 313 600,0
45	Haqiqat MFY	1,12	49 313 600,0
46	Xalqabod MFY	1,58	69 567 400,0
47	Xo‘jakarzon MFY	1,12	49 313 600,0
48	Xo‘jaqurg‘on MFY	1,12	49 313 600,0
49	Chaykal MFY	1,12	49 313 600,0
50	Charxin MFY	0,99	43 589 700,0
51	Chorbog‘ MFY	1,12	49 313 600,0
52	Yangiariq MFY	1,12	49 313 600,0
53	Yangiobod MFY	1,58	69 567 400,0

Xalq deputatlari Narpay tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-132-7-98-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

(so‘mda)

T/r	Mahalla fuqarolar yig‘ini nomi	Koeffitsiyent (0,5 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun
1	Amir Temur MFY	1,37	418,640
2	Axillik MFY	1,24	378,920
3	Barkamol MFY	1,24	378,920
4	Beklar MFY	1,24	378,920
5	Birlik MFY	1,10	336,140
6	Bolg‘ali MFY	1,24	378,920
7	Buston MFY	0,96	293,360
8	Guliston MFY	1,10	336,140
9	Dedan MFY	1,24	378,920
10	Do‘stlik MFY	1,24	378,920
11	Iymon MFY	1,24	378,920
12	Ipak yo‘li MFY	1,24	378,920
13	Islom Shoir MFY	1,37	418,640
14	Islomobod MFY	1,37	418,640
15	Istiqlol MFY	1,24	378,920
16	Qoziyoqli MFY	1,24	378,920
17	Qozikent MFY	1,24	378,920
18	Ko‘k ota MFY	1,24	378,920
19	Mang‘it MFY	1,24	378,920
20	Muqumiy MFY	1,24	378,920
21	Mustaqillik MFY	1,24	378,920
22	Mushkent MFY	1,24	378,920

23	Navruz MFY	1,24	378,920
24	Narpay MFY	1,24	378,920
25	Nog‘araxona MFY	1,37	418,640
26	Nug‘ay MFY	1,24	378,920
27	Obihayot MFY	1,24	378,920
28	Oq oltin MFY	1,24	378,920
29	Oqtosh MFY	1,37	418,640
30	Olti o‘g‘il MFY	1,24	378,920
31	Ravot Olchin MFY	1,24	378,920
32	Salovat MFY	1,37	418,640
33	Sarbozor MFY	1,37	418,640
34	Soxibkor MFY	1,10	336,140
35	Tepa MFY	1,24	378,920
36	Tepaqo‘rgon MFY	1,24	378,920
37	Tinchlik MFY	1,37	418,640
38	Tortuvli MFY	1,24	378,920
39	Totkent MFY	1,24	378,920
40	Toshko‘prik MFY	1,24	378,920
41	To‘ron MFY	1,24	378,920
42	O‘zbekiston MFY	1,24	378,920
43	O‘zbekkenti MFY	1,24	378,920
44	Umid MFY	1,24	378,920
45	Haqiqat MFY	1,24	378,920
46	Xalqabod MFY	1,37	418,640
47	Xo‘jakarzon MFY	1,10	336,140
48	Xo‘jaqurg‘on MFY	1,24	378,920
49	Chaykal MFY	1,24	378,920
50	Charxin MFY	1,10	336,140
51	Chorbog‘ MFY	1,24	378,920
52	Yangiariq MFY	1,24	378,920
53	Yangiobod MFY	1,37	418,640